

G‘olibjon MAHAMMADJANOV,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ma‘sul xodimi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: galibmahammadjanov@gmail.com

tel: 97 746-28-22

Sotsiologiya fanlari doktori, professor T.Matiboyev taqrizi asosida

TRANSFORMATION TENDENCIES IN THE SYSTEM OF SOCIAL CONSCIOUSNESS IN TRADITIONAL AND MODERN SOCIETIES

Annotation

The article reveals the importance of social consciousness and social institutions affecting it in the processes of building a society and state based on democratic principles in new modern relations, the transformational changes observed in the relations of citizens and society, and the conceptual foundations of their importance in the development of the social system in modern societies. Also, the main stages of the formation of these concepts in the system of social sciences, in particular in the field of sociology, were analyzed from a scientific and theoretical point of view.

Key words: social consciousness, sociological, synergetics, dynamics, traditional society, modern society, concept, inclusive, extractive, development, social institution, consciousness, new tendency, reforms.

ТЕНДЕНЦИИ ТРАНСФОРМАЦИИ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ТРАДИЦИОННОМ И СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В статье раскрывается значение общественного сознания и влияющих на него социальных институтов в процессах построения общества и государства, основанного на демократических принципах, в новых современных отношениях, трансформационные изменения, наблюдаемые в отношениях граждан и общества, а также концептуальные основы их значения. В развитии социальной системы в современном обществе. Также с научно-теоретической точки зрения проанализированы основные этапы формирования этих понятий в системе социальных наук, в частности в области социологии.

Ключевые слова: общественное сознание, социологический, синергетика, динамика, традиционное общество, современное общество, концепция, инклюзивное, экстрактивное, развитие, социальный институт, новая тенденция, реформы.

AN‘ANAVIY VA ZAMONAVIY JAMIYATLARDAGI IJTIMOYIY ONG TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALARI

Annotatsiya

Maqolada yangi zamonaviy munosabatlarda demokratik tamoyillar asosidagi jamiyat va davlat qurish bilan bog‘liq jarayonlarda ijtimoiy ong va unga ta‘sir etuvchi jamiyat institutlarining ahamiyati, fuqarolar va jamiyat munosabatlarida kuzatiladigan transformatsion o‘zgarishlar, ularning zamonaviy jamiyatlardagi ijtimoiy tizimi rivojidadagi ahamiyatining konseptual asoslari ochib berilgan. Shuningdek, mazkur tushunchalarning ijtimoiy fanlar tizimida, xususan aynan sotsiologiya fanida shakllanishining asosiy bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilib, o‘rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq va G‘arb mutafakkirlari hamda zamonaviy O‘zbekiston, shu bilan bir qatorda, xorijiy olimlarning sohaga oid tadqiqotlari o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ong, sotsiologik, sinergetika, dinamika, an‘anaviy jamiyat, zamonaviy jamiyat, konsepsiya, inklyuziv, ekstraktiv, taraqqiyot, ijtimoiy institut, siyosiy ong, yangi tendensiya, islohotlar.

Kirish. Ijtimoiy ong tushunchasi jamiyatda o‘rnatilgan qonun-qoidalarning umumiy birligi sifatida barcha ijtimoiy fanlarning asosiy o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarning tadqiq etish inson, jamiyat va davlat munosabatlari mukammal darajaga erishmasdan avval tadqiqot obyekti sifatida alohida ahamiyatga ega. Sotsiologiya fanida ijtimoiy ong va uning o‘zgarishlarini jamiyatda yangicha mezonlarni o‘rnatish hamda uni rivojlantirish mexanizmi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Shu munosabat bilan xulq-atvor me‘yorlari («o‘yin qoidalari») siyosiy xulq-atvorni institutsionalizatsiya qilishning eng muhim vositasidir. Jamiyatlarda ijtimoiy ongning o‘zgaruvchanligi va transformatsiyalashuvi, shu asosda unga xos boshqaruvning ta‘siri barcha davlatlar hamda jamiyatlar uchun xosdir. Jamiyat asosiy o‘rnatilgan qonun-qoidalarning o‘zgaruvchanligi, xususan, ijtimoiy ongning doimiy ta‘sirlar vositasi rivojlanishi hamda shu asosda yangi jamiyatlar boshqaruv tizimini takomillashtirish negizida an‘anaviy qarashlar va maqsadlardan foydalanishning asosiy xususiyatlari masalasi o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

– **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Transformatsiya – ijtimoiy tizimning immanent umumiy sifat xususiyati bo‘lib, tizim bir strukturaviy tuzilmadan rivojlangan barqaror tizimga almashadi. U tizimning butun mazmun mohiyatidagi o‘zgarish, shaxs va institutlarning tabiiy rivojlanish qonuniyatlari asosida maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati o‘zgarishi. Bu jarayonning umumiy mohiyati sifatida aynan an‘anaviy ijtimoiy institutlarning yangi munosabatlarga qanchalik moslashuvchanligi holati desak to‘g‘ri bo‘ladi. Xususan, Farobiy ijtimoiy-siyosiy institutlar jamiyatdagi tartibni mustahkamlashning negizi sifatida baholab: “Qonunlarni o‘rganish to‘g‘ri, bilmaslik muammolarning boshidir. Chunki, qonunlarni bilmagan va ularga bo‘ysinmaganlar (qonunlarni) be‘mani deb atashni hojlab qoladilar”[1]. Ijtimoiy ong tizimidagi o‘zgarishlar aslida butun jamiyat hayotida o‘z aksini topishi nuqtai nazaridan uning shakllanishi o‘rganish, uning tarkibiy xususiyatlarini tadqiq etish har bir davrda, ayniqsa, bugungi globallashuv davrida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, ijtimoiy institutlar tashkil topishi va tizimidagi o‘zgarishlarda uning geografik xususiyatlari ya‘ni, makon va zamon munosabatlariga alohida bog‘liqdir. Har bir ijtimoiy institut rivojlanish hamda tanazzul imkoniyatiga ega. Bunda ijtimoiy institutlarning (ijtimoiy ong va uning shakllari) an‘anaviy tarkibiy xususiyatlarini o‘rganishlar etish ahamiyat kasb etishini alohida izohlab o‘tamiz. Jamiyatda ijtimoiy ong aslida o‘ziga xos siyosiy tafakkur va siyosiy qadriyatlarining shakllantirish va mustahkamlash omili hisoblanadi. Masalan, Farobiy “Har qanday fozil shahar va odam fozil bo‘lishi ekanligini tushuntirib, qoidalari va sog‘lom fikrlash fazilatiga ega bo‘lgan shahar va fozil odam hamisha g‘olib ekanligini ko‘rsatadi”. Bu yerda davlatlarda o‘ziga xos “g‘oya markazlari” (muallif) sifatidagi jamiyatdagi ijtimoiy ong va uning shakllariga katta urg‘u beriladi. Ijtimoiy ong va uning

ko'rinishlarini doimiy tadqiq etishning yana bir ahamiyati shundaki, ular jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ridan-to'g'ri shakllantirish mexanizmiga ega ekanligi bilan ifodalangani. Yangi jamiyat qurish yo'lidagi davlatlar uchun asosiysi – ijtimoiy institutlarning aholiga ta'sir ko'rsatish yangi mexanizmlarini shakllantirish va uning an'anaviy va zamonaviy tizimi tadqiq etish asosida o'ziga xos tajriba yaratishdan iboratdir. Jamiyatdagi ijtimoiy ongning rivojlanish darajasi bu davlatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini ko'rsatib beruvchi barometri hisoblanadi. Ijtimoiy ong tushunchasining fanda ijtimoiy muammo atamasi bilan ham talqin etish holatlari uchraydi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy muammo haqida aniq tasavvurga ega bo'lish maqsadga muvofiq. Jamiyatdagi ijtimoiy ong va boshqa ijtimoiy muammolar har bir jamiyat va davlat munosabatlarida, ayniqsa tuzum va tizim o'zgarishi kabi jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Hatto katta reytingga ega ilmiy markazlar ham shu asnoda shakllandi. 1936 yilda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning o'rganish, yangicha munosabatlarda insonlarning qarashlarini tartibga solish, tahlil qilish va yechimlarini aniqlash borasida "Ijtimoiy, psixologik muammolarning o'rganish jamiyati ("The Society for Psychological Study of Social Issues")" tashkil etildi[2]. Jamiyatda institutlarni tuzishda avvalo, uning tarkibiy xususiyatlarini o'rganish asosida yana-da mustahkamlash muhimdir. Buni Farobiy "jamiyatda qonunlar va ularga tegishli bo'lgan vakillarning (demak, ijtimoiy, siyosiy institutlarning) tuzishda shoshma-shosharlik natijasida yomon natijalarga erishishlari mumkinligini" –deya ta'kidlaydi. Ijtimoiy ongni tashkil topishi va shakllanishi muammolari doimo ijtimoiy tadqiqotlarning diqqat markazida turgan. Xususan, jamiyatda institutlarning tarkibiy xususiyatlarining ularning kelgusidagi taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liqligini, zaruriyatini Aflotun "ular agar o'zlari buyurgan narsani joriy eta olmasa, agar boshqalar bo'ysungan narsalarga o'zi amal qilmasa, u holda uning ko'rsatmalari qonuniy ega bo'lmaydi va uning ta'siri susayadi" – deya izohlagan edi [3].

- Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyatda ijtimoiy muammolarning avj olishi fonida ijtimoiy ong va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi tendensiyalarni tadqiq etish muammolari XX asrda alohida mavzu sifatida e'tirof etiladi. Jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi har qanday hatti-harakatlar, aslida ijtimoiylik statusiga da'vogarlik qilishi mumkin. Jumladan, g'arblik olim A.Shyusning fikricha, ijtimoiy ongni o'rganish boshqa fanlardan farqli ravishda, aynan jarayonga va undagi ijtimoiylik bilan bog'liq jihatlariga qaratilganligi bilan ajralib turadi (aniq bir qatlam, guruh misolida)[4]. Ularning shakllanishi avvalo, institutlar faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalariga borib taqaladi. Tizim tushunchasining o'zida (yunonchadan bir butunlikning tashkil etuvchi ma'nosini beradi) bir butun tizimning tarkibidan bir-biriga bog'liq holda hamda ularni tashkil etuvchi jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, tizim tushunchasi avvalo, biror jarayon hamda ko'p ma'noga ega bo'lgan ma'lumotni aniqlashtirish, tinglovchiga yetkazishning samarali, tartiblashgan usuli hisoblanadi. Ushbu tushunchaning "asosiy", "umumiylik" tushunchasidan farqi – u o'zida tartiblilik, tashkil topish qonuniyatlariga egalik hamda maqsad vazifalarni birlashtiradi. Tizim tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u nazariya, klassifikatsiya usuli, amaliy faoliyat metodi, institutlarning tarkibiy qismi, qonuniylik sifatida ham talqin etiladi. Fikrimizcha, tizim har bir faoliyat turining yoki tashkilotlarning faoliyati trayektoriyasini aniqlab beruvchi mexanizmi hisoblanadi. Ijtimoiy ong va uning shakllarini qanday tizimga ega ekanligini ularning barqaror bo'lishini ta'minlab berishi har qanday jamiyat, tuzumda yetakchi ahamiyatga ega. Demak, tizimni tadqiq etish o'z navbatida jamiyatning barqarorligi kafolati sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

- **Tahlil va natijalar.** Jamiyatda ijtimoiy ongning turli shakllari, xususan, axloq, urf-odat, an'ana, qadriyatlar (ijtimoiy, diniy) kabi ko'rinishlari mavjud bo'lib, u o'zgaruvchanlikka moyildir. Buning bir qancha sabablarini keltirib o'tish mumkin. Birinchidan, jamiyatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida. Ikkinchidan davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasida amalga oshirilgan o'zgarishlar o'z navbatida ijtimoiy ongning takomilida alohida ahamiyat kasb etadi. Sotsiologiya fanlarida ijtimoiy ong tushunchasining amaliy ahamiyati M.Veberning qarashlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy qarashlarida jamiyat ta'sir kuchi birmuncha yuqori bo'lgan ijtimoiy ong shakli, madaniyatning ahamiyati, uning rivojlanishi masalasi turgan[5]. Ijtimoiy ong va uning ko'rinishlarining faoliyati, yo'nalishlari avvalo, uning tizimi bilan bog'liq ravishda rivojlanishi lozim. Zero, har qanday qoidalar avvalo, tizimga solingan, tartiblashtirilgan bo'lishi shart. Tizim tushunchasining ijtimoiy ongga xos birinchi belgisi – avvalo, institutlarning o'zi tartiblashgan qoidalar umumiyligi ekanligidir. Keltirilgan fikrlar asosida shuni ta'kidlash mumkin, muayyan davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy, ma'naviy, hatto siyosiy barqarorlikning o'ziga xos elementlari, avvalo, uning asosiy ijtimoiy ong hamda uning shakllari yordamida ta'minlanadi. Fikrimizcha, siyosiy institutlar – davlatning rivojlanishi uchun strategik, kompleks yondashuvlarni shakllantirishning asosiy manbasi sifatida ham talqin etishimiz mumkin. An'anaviy jamiyatlarda ijtimoiy ong tizimining xos birinchi belgi – konservativizm (o'rnatilgan qadriyatlarga o'ta sodiqlik)dir. Jamiyatning institutlari rivojida bu xususiyatlardan foydalanishning o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. An'anaviy jamiyat va unga xos bo'lgan institutlarning eng kuchli jihati – an'analarning davlat boshqaruv sohasi bilan uyg'unlashuvi asosida ta'sir kuchiga ega ekanligi bilan izohlanadi. Q.Quranboyevning fikriga ko'ra, jamiyatda ijtimoiy ong shakllariga bo'lgan ehtiyojning yana bir sababi – ularda «boshqaruv tabiati» mavjudligi bo'lib, unga ko'ra, ular jamiyatda yaratuvchanlik, ijodkorlik hamda amaliy hamkorlikni aks ettiradi[6]. Ijtimoiy ongning an'anaviy ko'rinishlariga xos bo'lgan yana bir tizim – diniy qadriyatlaridir. N.Makiavelli jamiyatning institutlar tizimi xaqida to'xtalib o'tar ekan, avvalo bu iyerarxiyaning asosida diniy institutlarning mavjudligi ta'kidlagan edi[7]. Bu qarashlar Sharq olimlarining fikrlarida ham o'z isbotini topgan. Xususan, Nizomulmuluk an'anaviy jamiyatning ijtimoiy institutlari tizimi, tarkibini, "Mulk(bu yerda boshqaruv, siyosiy institut) kufr bilan mavjud bo'lishi mumkin, ammo zulm bilan barbodlikka mahkumdur" degan edi[8]. An'anaviy institutlar tizimiga xos bo'lgan keyingi jihat – jazolash tartibining qat'iy o'rnatilganligidir. Fikrimizcha, ijtimoiy ong jamiyat uchun birdek ta'sirga ega siyosiy tizim va unga xos bo'lgan ayrim boshqaruv elementlarini o'zida mujassamlashtirgan qarashlar birligidir. Uning jamiyatdagi maqomi, avvalo, aholining manfaatlarini, tarixiy rivojlanish imkoniyatlari (qadriyat, an'anal ko'rinishida)ni o'zida mujassam etganligi va aholining katta qismiga ta'sir ko'rsatish darajasi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy ong transformatsiyalashuviga xos bo'lgan zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilar ekanmiz, bu jaryonlarda ijtimoiy va uning shakllari mavjud tizimning barqarorligini, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga moyilligini oshirishga xizmat qiladigan mexanizmlar uyg'unligi sifatida ko'rsatib o'tish mumkin. An'anaviy ijtimoiy ong tizimini tadqiq etganimizda, avvalo ularning jamiyat munosabatlariga, aholiga bo'lgan ta'sirning yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yangi jamiyatlar qurish, uni mustahkamlash davomida an'anaviy ijtimoiy institutlarning tizimiga xos bo'lgan ana shu ijobiy belgilarni qo'llash, ta'sir etish mexanizmlarini takomillashtirish asosida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy institutlarga xos institutsional o'zgarishlarini hisobga olish – ularning shu jamiyatga moslashuvchanligini ta'minlovchi omildir. An'anaviylik munosabatlarida takomillashgan ijtimoiy ongning o'ziga xos xususiyati – uning aniq makon va zamonda sinovdan o'tganligidir. Shuni, ta'kidlash joizki, an'anaviylik va zamonaviylik munosabatlarini inson faoliyatining natijasiga bog'liqdir. Yangi jamiyatni shakllantirish va uning rivojlantirish yuqoridagi jihatning qay darajada hisobga olinganligiga bog'liqdir. An'anaviy ijtimoiy institutlarga tizimiga xos bo'lgan yana bir xususiyat – jamiyatda tartib qoidalarining ishlab chiqilishi va uning qat'iy boshqaruv

jarayonlariga yo'naltirilishi bilan bog'lanadi. Agar inson o'zgarasa, uning qarashlari yangilansa, u an'anaviylik va zamonaviylik jarayonida ham ijobiy xususiyat kasb etadi. Antik davrda ham, garchan an'anaviylikning xususiyatlari yuqori bo'lishiga qaramasdan, ijtimoiy institutlarda zamonaviylikning belgilar mavjud bo'lgan. Modernizatsiya aslida yangilik, yangilanish ma'nosida bo'lib, mavjud tartiblardan qisman o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Asosiy masala – o'zgarishlar trayektoriyasini o'z vaqtida to'g'ri anglash va yo'naltirishdan iborat. An'anaviy jamiyatlarning shakllanishi va uning rivojlanishi bevosita jamiyatdagi ijtimoiy ong darajasi bilan bog'liqdir – degan edi L.Shtraus[9]. Ijtimoiy ong asosiy ijtimoiy institut sifatida zamonaviy jamiyatda davlatning belgilari o'zgarib boradi. Buning asosiy sababi – jamiyat taraqqiyoti, xususan globallashuv davomida yana-da ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy davlatlarda ijtimoiy ongning ko'rinishlari quyidagi o'xshash belgilari takomillashib yangicha yo'nalishda rivojlanib bormoqda va ular quyidagilardan iborat: a) ommaviy tartibni o'rnatish va inson huquqlarini himoya qilish; b) jamiyatda ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklarni etish; v) jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini o'zida mujassam etuvchi qarorlar qabul qilish; g) tinchlikni ta'minlash va harbiy harakatlarni oldini olish; z) jamoaviy kopromiss hamda turli aholi qatlamlari manfaatlarini[9]. Shu o'rinda globallashuv jarayonini hisobga olgan holda, zamonaviy davlatlarda axborotlarning to'g'ri baholash (filtr) hamda uni jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlariga moslashtirish vazifasini ham kiritish mumkin. Fikrimizcha, jamiyatning bir sohasida o'zgarishlar, avvalo ijtimoiy ong shakllariga yoki ular orqali boshqa sohalarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda avvalo, insonlarning qarashlariga bo'lgan ta'sirlar jamiyatning institutlari tomonidan amalga oshirilgandagina, u tom ma'noda ijobiylik kasb etadi. Agar insonlarning ijtimoiy institutlari bilan aloqasini uzsa, ularda fuqarolarning manfaatlarini ifoda etishdagi o'rni bo'lmas ekan sezilmasa jamiyatda siyosiy tanazzul kuzatiladi. Bu jarayon an'anaviy va zamonaviy jamiyatning ijtimoiy institutlariga tegishli. Tor ma'noda modernizatsiya tushunchasi yopiq jamiyatdan ochiq jamiyatga (faqatgina bir mamlakat miqyosida) o'tish holati nazarda tutiladi. An'anaviy va zamonaviy siyosiy institutlarning o'zaro taraqqiyoti ularning tizimidagi o'zgarishlarning darajasiga bog'liq. globallashuv oqibatida jamiyatlar va davlatlar hayotida tezlashib borayotgan zamonaviylashuv tendensiyasi sharoitida ijtimoiy ong fenomenini tadqiq etish har qachongidan ham muhim zaruriy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tan olish kerakki, demokratiya, ijtimoiy hamkorlik, vatanparvarlik, milliy g'oya tushunchalarining biror-bir mamlakatda muqim o'rinishi (aholi tomonidan to'g'ri anglanishi natijasida moyillik) da aynan ijtimoiy ong va uni rivojlantiruvchi mexanizmlari belgilab beradi. Fikrimizcha, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ong va uning shakllari, bir so'z bilan aytganda, aholining yangicha qarashlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy institutlardir. Shu bilan birga, ijtimoiy ongning transformatsiyalashuvi masalasida yagona to'xtam yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Zero, jamiyatda ijtimoiy va uning shakllari «mukammal yoki aniq bir shaklda» mavjud bo'la olmasligini ham ko'rsatib o'tishimiz lozim bo'ladi. Har bir jamiyatda ijtimoiy ong darajasida o'zgarishlar, xususan, ularning transformatsiyalashuvi natijasida yangi ko'rinishiga ega bo'lib boraveradi. Masalan, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan qadriyatlar ana'naga nisbatan (vaqt nuqtai nazaridan) nisbatan zamonaviy ijtimoiy institut sanaladi. Zamonaviy jamiyatlarni barpo etishda ijtimoiy ongni transformatsiyalashuvi omilining konseptual tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning negizida zamonaviy munosabatlarga moslashuvchanlik (transformatsiya) yoki qarama-qarshilik xususiyati mavjud. Toynbi «har bir davrda insonlarning dinga va diniy institutlarga (asosiy ijtimoiy ong shakli sifatida-muallif) bo'lgan munosabatlarini yo'qotganlarida mamlakatda dezintegratsiya va harbiy xujumlarning asosiy maydoniga aylanib qolishi aniq bo'lgan sivilizatsiyalarni vujudga keltiradi» [12]–deb yozadi. Zamonaviy ijtimoiy institutlarni yana-da mustahkamlashda an'anaviy mezonlardan foydalanish doimo muhimdir.

- Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatdagi asosiy ijtimoiy institutlardan biri hisoblangan – ijtimoiy ong va uning shakllari tizimidagi o'zgarishlarni tadqiq etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir va ular quyidagilardan iboratdir: birinchidan, ijtimoiy ong u yoki bu shakllarini mavjudligi jamiyatda, avvalo, davlat boshqaruvining barqarorlik omili hisoblanadi. Bu jarayonning natijaviligini anglash maqsadida ularning rivojlanishi tendensiyalarini, o'zgarish dinamikasini doimo tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi; ikkinchidan, ijtimoiy ongning rivojlanishiga xos jarayonlar davlat va jamiya munosabatlarini mustahkamlashda muhim ijtimoiy barqarorlik tendensiyasi sanaladi. Shuning uchun o'rganilgan ilmiy tadqiqotlarda bu holatni yaqqol kuzatish mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy ongni zamonaviylik munosabatlari bilan moslashuvchanligini o'rganishlarga kompleks tarzda yondashuvni talab etadi; uchinchidan, ijtimoiy ongning transformatsiyalashuvi, o'z navbatida, amaliyotda sinalgan boshqaruvga xos mexanizmlarni o'zida mujassamlashtir-gani bilan zamonaviy boshqaruv tamoyillarini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi; to'rtinchidan, ijtimoiy ongning transformatsiyalashuvining samaradorligini o'rganishi muayyan jamiyatda demokratiyaning moslashuvchanligini belgilashning asosiy omillaridan biridir; beshinchidan, jamiyatda ijtimoiy ong munosabatlaridagi o'zgarishlar, o'z navbatida, jamiyatda boshqaruv va uning ta'sir mezonlarining yangi ijtimoiy munosabatlariga kirisha olishi, uning tayyorgarlik darajasi zamonaviylashuv bosqichidagi davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, yangi ijtimoiy munosabatlarini uzluksizligini ta'minlab berishga xizmat qiladi. Bu esa har qanday ijtimoiy, siyosiy tizim mustahkamligining asosiy omilidir.

ADABIYOTLAR

1. A.Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” T., 2021. B.25.
2. Ionin L.G. Sotsiologiya kulturi. – M. : Logos. 1998. S. 234.
3. A.Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” T., 2021. B.26.
4. Natsionalniy psixologicheskiy jurnal №1(9)/2013, 39–49
5. M.Veber. Izbranniye proizvedeniya: Per. s nem./Sost., obsh. red. i poslesl. Yu. N. Davidova; Predisl. P. P. Gaydenko. — M.: Progress, 1990. -808 s.
6. Quranboyev Q.Q. Davlat boshqaruv tizimi: shakllanish va rivojlanishi muammolari. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T. 2008. – B.26.
7. Makiavelli N. Izbranniye proizvedeniya. M., 1982. S.82.
8. Nizomulmulk. Siyosatnoma. T., “Yangi asr avlodi”. 2008. B.18.
9. L.Shtraus. Vvedeniye politicheskoy filosofiyu. M.; Logos, 2000. S.19.